

# **METROPOLITEN OBYEKTLARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGI VA UNI TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR**

**Behzodbek Islombekovich ISLOMBEKOV**

mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## **Annotatsiya**

Maqolada metropolitenda jamoat xavfsizligi va uni ta'minlashga ta'sir qiluvchi obyektiv, subyektiv, antropogen, kriminogen, texnogen va boshqa omillar haqida so'z yuritiladi hamda hozirgi zamon talabi va xorijiy tajribalardan kelib chiqib ularni bartaraf qilishning yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi.

**Tayanch so'zlar:** jamoat xavfsizligi, antropogen omillar, kriminogen omillar, texnogen omillar, zamonaviy texnologiyalar.

# **ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ОБЩЕСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ И ЕЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ НА ОБЪЕКТАХ МЕТРОПОЛИТЕНА**

**Бехзодбек Ислombeкович ИСЛОМБЕКОВ**

Независимый исследователь

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

## **Аннотация**

В статье рассматриваются объективные, субъективные, антропогенные, криминогенные, техногенные и другие факторы, влияющие на общественную безопасность и ее обеспечение в метрополитене, а также предлагаются рекомендации по их устранению на основе современных требований и зарубежного опыта.

**Ключевые слова:** общественная безопасность, антропогенные факторы, криминогенные факторы, современные технологии.

Metropolitan obyektlarida jamoat xavfsizligi – avtomobil, temir yo'l, havo va daryo transportidan farq qiluvchi, yopiq (yer osti tonnellari) va muayyan cheklangan (yer usti halqa yo'li) hududda faoliyat yurituvchi metropoliten infratuzilma obyektlarida, aniqrog'i, uning hududida harakatlanayotgan yo'lovchilar va boshqa shaxslarning (metropolitendan foydalanishda maxsus huquqqa ega bo'lgan vakolatli shaxslar) Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan hayoti, sog'lig'i uchun xavf-xatarining yo'qligi, qonuniy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarining barqaror ta'minlanishidir. Bu ikki liniyali poezdlar harakat tizimida tevarak-atrofning yopiqligi, yo'lovchilar harakatlanadigan bekat va maydonchalar, metropoliten

xizmatchilari hamda IIO metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi (MXTB) xizmat binolaridan iborat barcha infrastruktura obyektlarining (bekatlar, depolar, ayrim kassalar, ma'muriy va boshqa xizmat bino va inshootlari, elektr stansiyalar, shamollatish tizimlari, maydonchalar, platformalar, yo'ldan-yo'lga o'tish, kirish va chiqish joylari hamda boshqalar) o'rab olinganligi ushbu hududda jamoat xavfsizligi uchun xavf manbayi yuqoriligidan dalolat beradi.

Jamoat xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida so'z yuritilar ekan, biz bu o'rinda avvalo "omil" so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratamiz, *Omil* – I (arab. sabab, ta'sirchan kuch). Ish-harakat, voqea-hodisa va sh.k.ning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun sabab bo'lgan narsa; sabab. II (arab. ishlovchi, harakatdagi; haqiqiy; ishchi, xizmatchi) [4;122]. Yuridik fanda omillar turli mezonlar asosida tasniflanadi.

Masalan, metropoliten umumiy tuzilishi, kelib chiqishiga ko'ra xavf manbayi yuqori bo'lgan (tabiiy) *obyektiv omillar* sirasiga kiritish mumkin. Metropoliten muayyan cheklangan masofa va hududni tashkil etganligi sababli, turli subyektiv omillar ta'sirida sodir bo'ladigan tajovuzlar va uning oqibatida yuz beradigan halokatlardan himoyalani, yashirinish yoki undan qochib qutulishning iloji bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2024-yil 5-sentyabrdagi "Xavfi yuqori bo'lgan obyektlarning ro'yxatini tasdiqlash haqida"gi 7/94463–01-sonli buyrug'ining "Xavfi yuqori bo'lgan obyektlarning ro'yxati" ilovasining 55-bandida "metropoliten transporti infratuzilmasi obyektlari – umumiy tarmoq temir yo'llari, tonnellar va estakadalar, bekatlar, xizmat ko'rsatish obyektlari va muxandislik ta'minoti tizimlari" xavfi yuqori bo'lgan obyektlar ro'yxatiga kiritilgan [5].

*Subyektiv omillar* – bular metropoliten obyektlariga nisbatan bo'ladigan har qanday tashqi tahdidlar; inson (subyekt) qo'li bilan va uning ishtirokida sodir etilishi ehtimol tutilgan *antropogen omillar* – jinoiy xatti-harakatlar, g'ayriqonuniy qilmishlar. Ularga qarshi kurashish, avvalo subyektiv omillarni bartaraf etish orqali obyektiv omilning (metropoliten obyektlari) xususiyatidan kelib chiqib, uning

xavfsizligini har tomonlama ta'minlashga mas'ul bo'lgan davlatning maxsus subyektlari faoliyatining asosiy majburiyati hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, jamoat xavfsizligiga ta'sir qilish *mazmuni* bo'yicha omillarni kriminogen, antikriminogen va ogohlantiruvchi omillarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Metropolitenda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga tahdid qiluvchi *kriminogen omillar* – bular o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik, firibgarlik, tovlamachilik, odam o'ldirish, giyohvandlik va shu kabi boshqa har qanday huquqbuzarliklarning sodir etilishiga shart-sharoit yaratuvchi vaziyat, shart-sharoit hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, metropoliten obyektlarida bunday shart-sharoitlar, ya'ni kriminogen omillarning yuzaga kelishiga quyidagilar turtki bo'ladi:

a) kunning tig'iz vaqtlari – ertalab soat 7:00 dan 10:00 gacha, kechqurun soat 16:00 dan kechqurun 19:00 gacha metro bekatlarida odamlarning to'planib qolishi sababli platformalar va vagonlarda yuzaga kelgan tirbandlik holati;

b) metro bekatlarining yirik korxonalar, ta'lim muassasalari, bozor va savdo shoxobchalari, stadionlar, san'at saroylari va boshqa aholi zich yashaydigan manzillardan o'tganligi sababli aholining gavjumligi;

v) poytaxtimizda bo'lib o'tadigan davlat tadbirlari, bayramlar, futbol musobaqalari, festivallar, turli ko'ngilochar tomoshalar, konsertlardan keyin bekatlarda yo'lovchilarning haddan tashqari ko'payib ketishi;

g) kuz va qish mavsumlari qattiq yog'ingarchilik sharoitlarida odamlarning metro xizmatidan foydalanishga bo'lgan ehtiyojining kuchayishi va boshqalar.

Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, metropoliten xavf manbayi yuqori bo'lgan obyekt sanalishining yana bir omili – terrorchilik hujumlari yoki portlashlar oqibatida metropolitenning cheklangan hududida yoki vagonlarda qurbonlar sonining tashqariga qaraganda bir necha barobar ko'p bo'lishi. Bunday fojiali holatlar dunyo metropolitenlarida ko'p bor kuzatilgan.

Masalan, rossiyalik olim A.S.Igoshkinaning ta'kidlashicha, metropolitenning infrastrukturasi qo'poruvchilik akti uchun qulayligi; yo'lovchilar oqimining ko'pligi

va tor makonda portlash chog'ida odamlarga yuqori darajada zarar yetkazilishi; poezdlar harakatining tezligi; stansiyaga kirishning erkinligi; kirish chog'ida qurol va portlovchi moddalarni aniqlash maqsadida yo'lovchilar oqimining zichligidan ularni sinchkovlik bilan birma-bir tekshirishning iloji yo'qligi [2;16] ahamiyatlidir. Bunga bir necha misollarni keltirish mumkin: 2010-yilning 29-mart kuni Moskva metrosida bir qator portlashlar sodir etildi. Bu portlashlar metropolitenning "Sokolnicheskiy" yo'nalishining "Lubyanka", "Park kulturi" bekatlarida sodir etilib, terrorchi bunda shahid belbog'idan foydalangan [7]. Shuningdek, Minsk metropoliteni "Oktabr" bekatida 2011-yilning 11-aprel kuni sodir etilgan terrorchilik akti natijasida 15 nafar fuqaro halok bo'lgan va 200 dan ortiq shaxs turli darajada jarohatlangan [8].

Shu bois rossiyalik olim M.A.Smirnovning fikricha, metropoliten transport infratuzilmasi obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida davlat ushbu yo'nalishda tashkiliy, iqtisodiy va boshqa choralardan iborat aniq va maqsadli siyosat olib borishi kerak [3;24].

Aynan shuning uchun ham bugungi kunda og'ir jinoyatlarning oldini olish maqsadida ularning hali boshlanmasdanoq barvaqt oldini olish borasida preventiv choralar ko'rish davr talabidir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6196-sonli farmonida [1] "ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani *to'liq raqamlashtirishga erishish*" belgilab qo'yilgan. Demak, IIO MXTB xodimlarining o'z intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish, ishga nisbatan talabchan va chuqur mas'uliyatli bo'lish, xizmatda innovatsion raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini puxta egallashlari taqozo etilmoqda. Demak, metropoliten obyektlarida kriminogen omillarni to'liq bartaraf etish ko'rsatkichlaridan eng muhimi – bu *inson omili salohiyatini kuchaytirish*,

metropoliten barcha obyektlari tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash orqali to'liq modernizatsiyalashga erishishdir.

Metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlashda *antikriminogen omillar* – bu kriminogen omillarni bartaraf etish uchun ularga qarshi kurashda qo'llaniladigan ma'muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy va profilaktik chora-tadbirlar kompleksi bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularning oldini olish natijasida yaratiladigan *barqaror vaziyat*. Metropoliten obyektlarida antikriminogen omillar deganda, jinoyatchilikka qarshi ta'sirchan choralarni o'z vaqtida va oqilona qo'llash orqali jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqbuzarliklarning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashishda qo'llaniladigan vosita va usullar kompleksidan foydalanish orqali hududda yo'lovchilar uchun har tomonlama xavfsiz, qulay va barqaror shart-sharoit yaratish tushuniladi.

Metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlashda amalga oshiriladigan *ogohlantiruvchi omillar* – bu metropoliten obyektlari tizimida olib boriladigan keng qamrovli profilaktik tadbirlar (masalan, obyektning faoliyat jarayoni, harakat tarkibining uzluksiz, barqaror va uyg'un ishlashining ta'minlanishi uchun xavfsizlik choralari) kompleksidan iborat.

Profilaktik chora-tadbirlar quyidagicha:

*birinchisi*, metropolitenda bo'lgan yo'lovchilarni huquqbuzarliklardan ogohlantiruvchi vositalar – metropoliten obyektlarining barcha axborot va video tarmoqlari orqali keng doirada targ'ibot va tashviqot shaklida olib boriladi;

*ikkinchisi*, huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bog'liq texnik vositalar – metropoliten obyektlarida o'rnatilgan videokuzatuv, radioaloqa va signalizatsiya qurilmalaridan foydalanish orqali huquqbuzarliklarni aniqlash bilan amalga oshiriladi;

*uchinchisi*, ichki ishlar organlari xodimlarining kuch va vositalari – inson omili yordamida nazoratdagi obyektning barqaror, uzluksiz va bir maromda faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida naryadlar shaklida (24/7 tunu kun) qo'riqlovi tashkil etiladi.

Metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillardan yana biri – bu yengib bo'lmaydigan kuch, *tabiiy va texnogen omillar* hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, tabiat hodisalari, favqulodda holatlar bilan bog'liq omillar ham jamoat xavfsizligini ta'minlashda asosiy e'tibor qaratiladigan muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Masalan, 2019-yilning 18-dekabrida metroning Yunusobod yo'nalishi qurilishi hududida tuproq o'prilishi yuz bergan va oqibatda 6 kishi halok bo'lgan. Maxsus tekshiruv komissiyasining xulosasiga ko'ra, “tuproqning o'pirilib tushishi qurilish jarayonidagi kamchiliklar va ishda loyihadan chekinish, shuningdek, tuproqning tinimsiz yomg'ir va kanalizatsiya suvlarini shimishi oqibatida yuz bergan” [6].

Ob-havoning yomonlashishi, qalin qor natijasida yo'llarning muzlashi, to'xtovsiz yomg'ir yog'ishi, sel, anomal sovuq oqibatida metropolitenda yo'lovchilarning haddan tashqari ko'payib ketishi, shuningdek, inson ta'siri bilan bog'liq yuqumli kasalliklar, epidemiya va pandemiya sharoitida metroda harakatlanishning cheklanishini ham favqulodda holat deb hisoblash mumkin.

2019–2020-yillarda butun jahon va mamlakatimizda yuz bergan “Covid-19” pandemiyasining metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlashga bevosita ta'sir qiluvchi eng xavfli omillardan biri ekanligi isbotlandi. Internet ma'lumotiga ko'ra metrodagi havoning 15 foizini inson terisidan chiqqan mikrozarachalar tashkil etadi [9]. Agar metropolitenda harakat cheklanmay, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va mamlakatimiz hududida epidemiyadan himoyalanişning tegishli talablariga rioya etilmaganida, mash'um kasallik qurbonlari sonining ortib ketishiga olib kelgan bo'lar edi. Metro bekatlari va transportda tirbandlik holatida bunday kasalliklarning tez tarqalishi isbotlandi.

Metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi omillardan yana biri – metropoliten hududlari, poezd vagonlari ichida yo'lovchilar tomonidan unutilib qoldiriladigan narsa va ashyolardir. Bu haqda “Metropolitenda yo'lovchilar hamda boshqa shaxslarning bo'lish qoidalari”ning 2-bandida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida yo'lovchilarning yuklarini “ko'zdan kechirish”ga ta'rif berilgan. Qoidalarning “Metropolitendan foydalanishda xavfsizlik talablari” deb

nomlanadigan 2-bobining 7-bandida esa, “Qoldirilgan ashyoga (buyumga) biror-bir mexanik ta’sir ko’rsatish (boshqa joyga olib o’tish, ochish va boshqalar) uning atrofidagi yorug’likni, haroratni va tovushni o’zgartirish hamda ashyo yaqinida radioelektr vositalaridan foydalanish qat’iyan man etiladi” deyilgan.

Metropoliten bekatida egasiz qoldirib ketilgan narsa (ashyo) aniqlangan taqdirda uning atrofi o’rab olinib, belgilangan guruh uni qo’riqlab turadi, agar u poezd vagoni ichida bo’lsa, yo’lovchilar tushirib yuboriladi, poezd yo’nalishdan olinadi va maxsus guruhning kelishi kutiladi. Maxsus guruhning yetib kelish vaqti bekat joylashuviga qarab 2 daqiqadan 30 daqiqagachani tashkil etadi. Bu esa o’z navbatida, bekatlarda fuqarolarning yig’ilib qolishiga, vaziyatning taranglashuviga, ba’zida jamoat tartibining buzilishiga olib keladi. Poezd vagonidagi narsani (ashyoni) tekshirish uchun esa uni (narsa aniqlangan joydan) oxirgi bekatga olib boriladi. Bu vaqt davomida ayrim metro bekatlarida harakatda uzilish ro’y berib, tirbandlik hosil bo’ladi, yo’lovchilarda bezovtalik, tashvishlanish holati kuzatiladi.

Tadqiqot yo’nalishida metropoliten hududiga taqiqlangan narsalarning (ashyolarning) olib kirilishi, “shahid belbog’i” bilan o’tish bo’yicha 2023-yil tanlab olingan kun va qo’riqlanayotgan obyektlarda “Mulyaj” sinov-o’quv mashg’ulotlari o’tkazganimizda, salbiy natijalar kuzatildi. Bu bizning nazarimizda, tashvishlanarli holat va bunga yo’l qo’yib bo’lmaydi. Toshkent metropoliteni hali zamonaviy texnikalar bilan to’liq ta’minlanmagan, faqat 2024-yildan boshlab vizual raqamli elektron kuzatuv vositalarining test sinovi o’tkazila boshlandi.

Jahonning ko’plab rivojlangan mamlakatlari metropolitenlarida bu vazifa asosiy va allaqachon hal qilingan.

2024-yilning fevral oyida Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida “Xavfsizlik va texnologiyalar” ilmiy forumi doirasida “Transportda terrorizm va xavfsizlik” mavzusidagi XXVIII Xalqaro konferensiyada RFning 7 ta shahridagi metropolitenlarining vakillari ham ishtirok etdilar. Ushbu konferensiyada jamoat transporti sohasida qonunchilik va xalqaro huquq normalari, shuningdek, shahar transporti sohasida xavfsizlikni ta’minlashning o’ziga xos xususiyatlari yuzasidan fikr va mulohazalar almashildi. Konferensiyada metropolitenda jamoat xavfsizligini

ta'minlash bo'yicha qo'llaniladigan yangi texnika va texnologiyalar, eng so'nggi rusumdagi zamonaviy elektron kuzatuv vositalari, umuman, transport va xususan, metropolitenida yo'lovchilarning harakat jarayonida o'zini mutlaqo xavfsiz his qilishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar namoyish qilindi. Sankt-Peterburg metropolitenida 2006-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida amalga oshirilgan ishlar taqdimot qilindi. Unga ko'ra: 63 ta stansiya va 1 ta depo maydonchasi intellektual videokuzatuv vositalari bilan jihozlangan; barcha bekatlarning chiqish yo'laklariga radiatsion nazoratni amalga oshiruvchi jami 83 ta turniketlar o'rnatilgan; metropoliten obyektlarining chiqish zonalari va ko'zdan kechirish punktlarida jami 532 ramkadan iborat statsionar metall detektorlar o'rnatilgan; jami 83 ta vestyubellar turli tipdagi ("SmartSkan XR 6045", "Di-Skan 6040", "Inspektor-6040Z", Inspektor "55/65ZX", "Sirius-P") rentgenli ko'zdan kechirish qurilmalari bilan jihozlangan. Barcha bekatlar va depo maydonchalarida "MO-2M", M-ION" turidagi portlovchi moddalar bug'ini aniqlashda 116 ta detektorlardan foydalaniladi. Kirishni nazorat qilish tizimi bilan metropolitenning barcha obyektlari jihozlangan (jami 72 bekat va 6 ta maydoncha). Videokuzatuv va perimetrlarni qo'riqlash signalizatsiyasi tizimi deponing barcha maydonchalariga o'rnatilgan. Bundan tashqari, shamollatish shaxtalari 118 ta qo'riqlash-tashvish signalizatsiyasi ventilyatsiya kioskalari tizimi bilan jihozlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bunday texnikalar Toshkent metropoliteniga ham joriy etilmas ekan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida jiddiy siljishlarga erishib bo'lmaydi, degan to'xtamga kelamiz.

Shunday qilib Toshkent metropolitenida jamoat xavfsizligi va uni ta'minlashga xalaqit beruvchi omillar haqida quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Birinchiidan, "Toshkent metropoliteni" DUKning er osti va er usti halqa yo'li yo'nalishlari – Chilonzor yo'li, O'zbekiston yo'li va Yunusobod yo'li yo'nalishlari bekatlari va O'zbekiston mustaqilligining 30 yilligi nomidagi er usti halqa yo'lining ishga tushirilgan bekatlaridagi kirish-chiqish joylari "Taran" himoya to'siqlari bilan to'liq ta'minlanishi kerak. Aks holda, bu metropoliten bekatlari hududiga har qanday transport vositasining hech bir moneliksiz kira olishiga imkon beradi.

Ikkinchidan, metropoliten bekatlarida kunning tig'iz vaqtlarida yo'lovchilarni to'liq nazorat qilish uchun naryadlarni kuchaytirish, kuzatuv kameralarini yangi zamonaviylari bilan almashtirish va to'liq ishlashini ta'minlash lozim.

Uchinchidan, yo'lovchilarning metroga kirib-chiqishini nazorat qiluvchi IIO MXTB xodimlariga ko'maklashuvchi zamonaviy texnikalar (statsionar metalldetektorlar, reagent nurli kiosklar va boshqa texnikalar)ning yetarli emasligi "Mulyaj" tadbiri jarayonida metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlash holatining qoniqarsizligini namoyon etdi.

Xulosa qilib aytganda, metropolitenda jamoat xavfsizligiga tahdid qiluvchi barcha omillarni inson intellektual salohiyatini to'liq ishga solgan holda, hozirgi zamon fan-texnika yutuqlari asosida bartaraf etish davrimizning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi 6196-sonli farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 06/21/6196/0240-son)
2. Игошкина А.С. Криминологические аспекты антитеррористической защищенности метрополитенов: диссертации на соискание кандидата юридических наук. – Москва: Московский университет МВД России, 2009.
3. Смирнов М.А. Административно-правовое обеспечение общественной безопасности на объектах метрополитена: диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва: Московский университет Министерства внутренних дел Российской Федерации имени В.Я.Кикотя, 2020.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-жилд. 80000 мингга яқин сўз ва сўз бирикмаси / Масъул муҳаррир А.Мадвалиев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020.

5. O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2024-yil 5-sentyabrdagi “Xavfi yuqori bo‘lgan obyektlarning ro‘yxatini tasdiqlash haqida”gi 7/94463–01-sonli buyrug‘i.

6. Metroning Yunusobod yo‘nalishi qurilishidagi favqulodda hodisa nima bilan yakunlandi? [https:// www.gazeta. Uz/ru/2020/12/24/yunusabad-case/](https://www.gazeta.uz/ru/2020/12/24/yunusabad-case/)

7. <https://wikipedia.org>. Вызрывы в Московском метрополитене (2010).

8. <https://ru.wikipedia.org>. Террористический акт в Минском метрополитене.

9. <https://dzen.ru/a/XZuA2DZCtgCtPvJl>.